THE PERSPECTIVE OF NEW ERA SCIENCES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
www.global-science-review.com
editor@global-science-review.com

MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI AMALIYOTGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.

Эффективность использования практико-ориентированных образовательных технологий для учителей начальной школы в системе повышения квалификации.

The effectiveness of using practice-oriented educational technologies by primary school teachers within the professional development system.

Saidova Dilnoza Maripovna
Farg'ona viloyati Pedagogik
mahorat markazi dotsenti
dilnozasaidova1385@gmail.com
SaidovaDM+998905841385
orcid.org 0009-0006-7249-2819

Annotatsiya. Mazkur maqolada malaka oshirish tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirishda amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyiha va trening texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish, ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается эффективность использования практико-ориентированных образовательных технологий в развитии профессиональных навыков учителей начальной школы в системе повышения квалификации. Также анализируются возможности формирования

профессиональных компетенций учителей при сочетании теоретических знаний с практической деятельностью, использовании интерактивных методов, проблемно-ориентированного обучения, проектных и учебных технологий. Обосновывается важность практико-ориентированных образовательных технологий в повышении эффективности педагогической деятельности, развитии творческого мышления и навыков самостоятельного принятия решений.

Abstract. This article examines the effectiveness of using practice-oriented educational technologies to develop the professional skills of primary school teachers within the professional development system. It also analyzes the development of teachers' professional competencies, the integration of theoretical knowledge with practical activity, and the potential for utilizing interactive methods, problem-based learning, project-based approaches, and training technologies. Furthermore, the article substantiates the significance of practice-oriented educational technologies in enhancing the effectiveness of pedagogical practice and in fostering skills such as creative thinking and independent decision-making.

Kalit so‘zlar: malaka oshirish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim, pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, ta’lim samaradorligi.

Ключевые слова: профессиональное развитие, учитель начальной школы, практико-ориентированное образование, педагогические навыки, профессиональная компетентность, инновационные технологии, интерактивные методы, эффективность образования.

Keywords: professional development, primary school teacher, practice-oriented education, pedagogical skill, professional competence, innovative technologies, interactive methods, educational effectiveness.

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ularning bilim va

ko‘nikmalarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning kasbiy mahorati, pedagogik kompetensiyasi va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati ta’lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich ta’lim bolaning shaxs sifatida shakllanishi, bilim olishga bo‘lgan qiziqishining rivojlanishi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy munosabatlarga kirishishida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy bilimlarini muntazam yangilab borish, ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan tanishtirish va amaliy faoliyatga tayyorlash malaka oshirish tizimining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

Malaka oshirish jarayoni pedagoglarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishga qaratilgan uzluksiz ta’lim shakli bo‘lib, uning asosiy maqsadi o‘qituvchining pedagogik faoliyatini zamonaviy ta’lim talablari asosida rivojlantirishdan iborat. An’anaviy malaka oshirish jarayonida ko‘pincha nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirishga ustuvor ahamiyat berilgan bo‘lsa, bugungi kunda ta’lim amaliyotida nazariy bilimlarni real pedagogik vaziyatlarda qo‘llash, o‘quv jarayonini mustaqil tashkil etish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ta’lim natijalarini baholash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish malaka oshirish jarayonining samaradorligini oshirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari deganda tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash, real pedagogik muammolarni hal etish, mustaqil faoliyat olib borish va kasbiy vazifalarni bajarish jarayonida zarur kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan metod va vositalar majmui tushuniladi. Bunday texnologiyalarning asosiy xususiyati shundaki, ta’lim oluvchi tayyor bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki o‘quv jarayonining faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘ladi. U

muayyan pedagogik vaziyatni o‘rganadi, muammoni aniqlaydi, uning yechimlarini izlaydi, o‘z qarashlarini asoslaydi va amaliy natijaga erishishga intiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirishda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, avvalo, ularning kasbiy ehtiyojlarini aniqlashdan boshlanishi lozim. Har bir pedagogning ish tajribasi, bilim darajasi, metodik tayyorgarligi va kasbiy rivojlanish ehtiyoji bir-biridan farq qiladi. Shu bois malaka oshirish mashg‘ulotlarini tashkil etishda tinglovchilarning individual imkoniyatlari, mavjud tajribasi va faoliyatidagi muammolarni hisobga olish muhimdir. Masalan, ayrim o‘qituvchilar boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha metodik yordamga ehtiyoj sezsa, boshqalari matematika fanini o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish yoki raqamli ta’lim resurslarini dars jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha bilimlarini rivojlantirishga ehtiyoj sezishi mumkin. Demak, malaka oshirish jarayoni barcha tinglovchilar uchun bir xil mazmundagi mashg‘ulotlardan iborat bo‘lib qolmasdan, ularning kasbiy ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilishi kerak. Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining muhim jihatlaridan biri interfaol metodlardan samarali foydalanishdir. Interfaol metodlar tinglovchilarning o‘zaro hamkorligini ta’minlash, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni birgalikda tahlil qilish va tajriba almashish imkonini beradi. Xususan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Baliq skeleti”, “Insert”, “BBB”, “Bumerang”, “Munozara”, “Kichik guruhlarda ishlash” kabi metodlardan foydalanish mashg‘ulotlarning mazmunini boyitadi. Bunday metodlar orqali o‘qituvchilar o‘zlarining mavjud bilimlarini faollashtiradi, yangi ma’lumotlarni tahlil qiladi va ularni pedagogik faoliyat bilan bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun tashkil etilgan malaka oshirish mashg‘ulotida “Aqliy hujum” metodidan foydalanib, “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlashini qanday rivojlantirish mumkin?” degan muammo o‘rtaga tashlanadi. Tinglovchilar ushbu savol yuzasidan o‘z fikrlarini bildiradilar, amaliy tajribalarini o‘rtoqlashadilar va turli metodik yechimlarni taklif

etadilar. Mashg‘ulot yakunida bildirilgan fikrlar umumlashtirilib, ularni dars jarayonida qo‘llash imkoniyatlari muhokama qilinadi. Natijada tinglovchilarda muammoni ko‘p tomonlama tahlil qilish, o‘z tajribasini baholash va yangi pedagogik yechimlarni ishlab chiqish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Malaka oshirish tizimida muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Muammoli ta’lim tinglovchilarning kasbiy faoliyatida uchraydigan murakkab vaziyatlarni mustaqil hal qilishga yo‘naltiriladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kundalik pedagogik faoliyatida turli muammolarga duch keladi. Jumladan, o‘quvchilarning bilim darajasidagi farqlar, darsga qiziqishning pasayishi, o‘quv topshiriqlarini bajarishda qiyinchiliklar, sinfdagi o‘zaro munosabatlar va ota-onalar bilan hamkorlik masalalari shular jumlasidandir. Malaka oshirish mashg‘ulotlarida aynan shunday vaziyatlarni muhokama qilish o‘qituvchilarning amaliy tayyorgarligini mustahkamlaydi. Muammoli ta’lim jarayonida tinglovchilarga muayyan pedagogik vaziyat taqdim etiladi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi dars davomida topshiriqlarni bajarishga qiziqmaydi, mustaqil ishlashdan qochadi va sinfdoshlaridan ortda qoladi. Bunday vaziyatda o‘qituvchi qanday pedagogik yondashuvni tanlashi kerakligi muhokama qilinadi. Tinglovchilar muammoning sabablarini aniqlash, o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish va tegishli metodik choralarni belgilash bo‘yicha o‘z takliflarini ishlab chiqadilar. Bu jarayon ularda pedagogik kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari orasida keys-stadi metodining o‘rni ham alohida ahamiyatga ega. Keys-stadi real yoki pedagogik jihatdan asoslangan vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish va muqobil yechimlarni ishlab chiqishga asoslanadi. Mazkur metod orqali malaka oshirish tinglovchilari o‘z faoliyatida uchraydigan muammolarni nazariy bilimlar bilan bog‘lagan holda hal etishni o‘rganadilar. Masalan, boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning o‘qish tezligi va matnni tushunish darajasi turlicha bo‘lgan vaziyatda barcha bolalarning ta’limiy

ehtiyojlarini qondirish uchun qanday topshiriqlar tizimini ishlab chiqish kerakligi muhokama qilinishi mumkin. Bunda tinglovchilar differensial yondashuv, individual topshiriqlar, juftlikda ishlash va qo‘shimcha mashqlardan foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadilar.

Loyiha texnologiyasi ham malaka oshirish jarayonida samarali natijalar beradigan ta’lim texnologiyalaridan biridir. Ushbu texnologiya tinglovchilarning muayyan pedagogik muammoni aniqlashi, uni hal etish bo‘yicha reja ishlab chiqishi, amaliy faoliyatni tashkil etishi va natijalarni baholashiga asoslanadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari malaka oshirish mashg‘ulotlari davomida “O‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish”, “Matematika darslarida hayotiy masalalardan foydalanish”, “Boshlang‘ich sinflarda ekologik tarbiyani tashkil etish”, “Raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish” kabi mavzularda kichik loyihalar ishlab chiqishlari mumkin. Bunday loyihalar pedagoglarning ijodiy salohiyatini namoyon etish, mustaqil ishlash, hamkorlikda faoliyat olib borish va amaliy natijaga erishish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Pedagogik treninglar amaliyotga yo‘naltirilgan malaka oshirishning yana bir muhim shakli hisoblanadi. Treninglar jarayonida tinglovchilar turli mashqlar, rolli o‘yinlar, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish va guruhli topshiriqlar orqali o‘z kasbiy ko‘nikmalarini mustahkamlaydilar. Masalan, “O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali muloqot”, “Sinfda ijobiy psixologik muhit yaratish”, “Ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish” kabi treninglar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Treninglarning afzalligi shundaki, tinglovchi bilimlarni faqat nazariy jihatdan o‘zlashtirib qolmay, balki ularni amaliy mashqlar orqali sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, pedagogik faoliyatni modellashtirish texnologiyasidan foydalanish ham malaka oshirish samaradorligini oshiradi. Modellashtirish jarayonida tinglovchilar muayyan dars yoki pedagogik faoliyat jarayonini oldindan loyihalashtiradilar. Masalan, boshlang‘ich sinfda ona tili, o‘qish savodxonligi yoki matematika fanidan

namunaviy dars ishlanmasini ishlab chiqish, darsning maqsadini belgilash, metod va vositalarni tanlash, o‘quv topshiriqlarini yaratish hamda baholash mezonlarini ishlab chiqish topshiriladi. Shundan so‘ng tinglovchilar o‘zlari tayyorlagan dars loyihalarini namoyish etadilar va o‘zaro tahlil qiladilar. Bu jarayon o‘qituvchilarda darsni samarali tashkil etish, pedagogik maqsadlarni aniq belgilash va o‘quvchilarning faolligini ta’minlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirish mazmuniga yangi talablarni qo‘ymoqda. Bugungi pedagog nafaqat an’anaviy o‘qitish metodlarini, balki raqamli ta’lim resurslari, elektron platformalar, interfaol taqdimotlar, multimedia materiallari va onlayn baholash vositalaridan foydalanishni ham bilishi zarur. Shu sababli malaka oshirish jarayonida raqamli texnologiyalarni amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Tinglovchilarga elektron taqdimotlar tayyorlash, interfaol topshiriqlar yaratish, elektron testlardan foydalanish va ta’limiy videomateriallarni dars jarayoniga moslashtirish bo‘yicha amaliy topshiriqlar berilishi mumkin. Raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish o‘qituvchining metodik imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirishga ham yordam beradi. Masalan, boshlang‘ich sinf matematika darslarida interfaol mashqlar, geometrik shakllarni namoyish etuvchi elektron materiallar va mantiqiy topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning mavzuni yaxshiroq tushunishiga xizmat qiladi. O‘qish savodxonligi mashg‘ulotlarida esa audio matnlar, elektron kitoblar va tasvirli topshiriqlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning tinglab tushunish, o‘qish va fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarning bunday vositalardan mustaqil foydalanishga o‘rgatilishi ularning kasbiy raqobatbardoshligini oshiradi. Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda hamkorlikda o‘qitish metodlari ham muhim o‘rin tutadi. Hamkorlikda o‘qitish tinglovchilarning kichik guruhlarda faoliyat olib borishi, o‘zaro tajriba almashishi, bir-birining

fikrlarini tinglashi va umumiy xulosaga kelishiga asoslanadi. Malaka oshirish jarayonida guruhli mashg‘ulotlarni tashkil etish orqali turli maktablarda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning ilg‘or tajribalarini ommalashtirish mumkin. Masalan, bir guruh tinglovchilarga boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish, ikkinchi guruhga matematik tafakkurni shakllantirish, uchinchi guruhga esa tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish topshiriladi. Guruhlar o‘z ishlarini taqdim etib, o‘zaro fikr almashadilar. Bunday jarayon kasbiy hamkorlik madaniyatini rivojlantiradi.

Malaka oshirish tizimida amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining samaradorligini ta’minlashda refleksiv faoliyat ham muhim ahamiyat kasb etadi. Refleksiya pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, erishilgan natijalarni baholashi, mavjud kamchiliklarni aniqlashi va kelgusidagi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ongli jarayondir. O‘qituvchi o‘z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan qaray olishi, qo‘llagan metodlarining natijadorligini baholashi va zarur hollarda yangi pedagogik yondashuvlarni tanlay olishi kerak. Shu sababli malaka oshirish mashg‘ulotlarining yakunida refleksiv tahlilni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunda tinglovchilarga “Bugun qanday yangi bilimlarni egalladim?”, “O‘rganganlarimni dars jarayonida qanday qo‘llayman?”, “Faoliyatimda qaysi jihatlarni takomillashtirishim kerak?” kabi savollar berilishi mumkin. Amaliyotga yo‘naltirilgan malaka oshirishning samaradorligi faqat mashg‘ulotlarda qo‘llanilgan metodlar soni bilan emas, balki o‘qituvchining real pedagogik faoliyatida yuz beradigan ijobiy o‘zgarishlar bilan belgilanadi. Shu jihatdan malaka oshirish natijalarini baholash tizimini takomillashtirish zarur. Baholash jarayonida tinglovchining nazariy bilimlari bilan bir qatorda, amaliy topshiriqlarni bajarish qobiliyati, darsni loyihalash mahorati, pedagogik vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmasi, raqamli vositalardan foydalanishi va mustaqil metodik qaror qabul qilishi ham hisobga olinishi lozim. Buning uchun malaka oshirish jarayonida diagnostik, joriy va yakuniy baholash usullaridan foydalanish mumkin. Diagnostik baholash orqali

tinglovchilarning boshlang‘ich bilim va kasbiy ehtiyojlari aniqlanadi. Joriy baholash mashg‘ulotlar davomida bajarilgan amaliy topshiriqlar, guruhli ishlar, taqdimotlar va muammoli vaziyatlarni hal qilish jarayonini kuzatishga xizmat qiladi. Yakuniy baholash esa tinglovchining egallagan bilim va ko‘nikmalarini amaliy faoliyatda namoyon etish darajasini aniqlashga yordam beradi. Bunda test sinovlari bilan cheklanib qolmasdan, dars ishlanmalari, pedagogik loyihalar, metodik tavsiyalar va amaliy topshiriqlarni baholashga ham e’tibor qaratish lozim.

Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining samarali tashkil etilishi bir qator pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq. Birinchidan, malaka oshirish dasturlari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy ehtiyojlari va amaliy faoliyatidagi muammolar asosida shakllantirilishi zarur. Ikkinchidan, mashg‘ulotlarda nazariy ma’lumotlar va amaliy topshiriqlar o‘rtasidagi uzviylik ta’minlanishi kerak. Uchinchidan, tinglovchilarning mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatiga keng imkoniyat yaratilishi lozim. To‘rtinchidan, malaka oshirish jarayonida zamonaviy raqamli vositalar va innovatsion pedagogik texnologiyalardan maqsadli foydalanish talab etiladi. Beshinchidan, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish natijalari muntazam monitoring qilinishi va tahlil etilishi kerak. Shuningdek, malaka oshirish jarayonida trener va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlar ham muhim ahamiyatga ega. Trener faqat ma’lumot beruvchi shaxs sifatida emas, balki tinglovchilarning mustaqil izlanishi, tajriba almashishi va kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi tashkilotchi sifatida faoliyat olib borishi kerak. Bunda trenerning kasbiy kompetensiyasi, metodik tayyorgarligi, kommunikativ mahorati va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash qobiliyati mashg‘ulotlarning natijadorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kundalik ish faoliyatiga yaqin bo‘lgan misollar, topshiriqlar va pedagogik vaziyatlardan foydalanish ta’lim mazmunining amaliy ahamiyatini oshiradi. Malaka oshirish jarayonining samaradorligini oshirishda maktab va malaka oshirish muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish ham

zarur. Chunki pedagogning kasbiy rivojlanishi faqat auditoriya mashg‘ulotlari bilan chegaralanmasligi kerak. O‘qituvchilarning o‘z maktabida ochiq darslar tashkil etishi, ilg‘or tajribalarni kuzatishi, metodik birlashmalarda ishtirok etishi va hamkasblari bilan o‘zaro tahlil olib borishi malaka oshirish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi. Shuningdek, malaka oshirishda egallangan bilimlarni bevosita dars jarayonida sinab ko‘rish va natijalarini tahlil qilish o‘qituvchining kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida bir nechta muhim kasbiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Jumladan, pedagogik muammolarni aniqlash va tahlil qilish, ta’lim jarayonini mustaqil rejalashtirish, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, innovatsion metodlarni tanlash, raqamli resurslardan foydalanish va ta’lim natijalarini baholash kompetensiyalari shakllanadi. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning ijodiy fikrlashi, tashabbuskorligi, kasbiy mas’uliyati va o‘z ustida ishlashga intilishi rivojlanadi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, malaka oshirish dasturlarining ayrim hollarda nazariy ma’lumotlarga haddan tashqari yo‘naltirilishi, amaliy mashg‘ulotlar uchun vaqtning yetarli ajratilmasligi, tinglovchilarning raqamli savodxonligi darajasidagi farqlar va zamonaviy metodik resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi shular jumlasidandir. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun malaka oshirish dasturlarini muntazam yangilash, amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish, individual ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish va pedagoglar uchun qulay elektron metodik resurslar bazasini shakllantirish lozim. Umuman olganda, malaka oshirish tizimida amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ularning pedagogik mahoratini rivojlantirish va ta’lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etishning muhim vositasi hisoblanadi. Bunday yondashuv o‘qituvchini tayyor

bilimlarni o‘zlashtiruvchi tinglovchidan mustaqil fikrlaydigan, pedagogik muammolarni hal qila oladigan, o‘z faoliyatini tahlil qiladigan va kasbiy rivojlanishga intiladigan mutaxassis darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, malaka oshirish tizimida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida tayyorlash bugungi ta’lim islohotlarining muhim talablaridan biridir. Ushbu jarayonda interfaol metodlar, muammoli ta’lim, keys-stadi, loyiha texnologiyasi, pedagogik treninglar, modellashtirish va raqamli ta’lim vositalaridan maqsadli foydalanish yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Buning uchun malaka oshirish mashg‘ulotlarini o‘qituvchilarning real kasbiy ehtiyojlariga moslashtirish, nazariy bilimlarni amaliy topshiriqlar bilan uyg‘unlashtirish, mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatni rivojlantirish hamda o‘zlashtirilgan kompetensiyalarni pedagogik amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Natijada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy mahorati, metodik tayyorgarligi va innovatsion faoliyatga bo‘lgan intilishi rivojlanib, ta’lim-tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga zamin yaratiladi. Shuningdek, malaka oshirish jarayonida o‘qituvchilarning o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilishi, erishilgan natijalarni baholashi va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha mustaqil izlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda pedagoglarning ilg‘or tajribalarini ommalashtirish, o‘zaro tajriba almashish va metodik hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini takomillashtirish, dars jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga tayyorligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining samaradorligini oshirish uchun malaka oshirish kurslarida amaliy mashg‘ulotlar ulushini ko‘paytirish, real pedagogik vaziyatlar asosida topshiriqlar ishlab chiqish va o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish

natijalarini muntazam monitoring qilib borish maqsadga muvofiqdir. Har bir pedagog o‘z ustida muntazam ishlashi, yangiliklarga ochiq bo‘lishi va ta’lim jarayoniga ijodiy yondashishi orqali kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishishi mumkin. Demak, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish nafaqat o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi, balki boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishi, mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyati va faolligini oshirishga ham xizmat qiladi. Bu esa malaka oshirish tizimining asosiy maqsadi bo‘lgan raqobatbardosh, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, ijodkor hamda tashabbuskor pedagog kadrlarni tayyorlashga mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – 2023.

Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2002.

Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.

Farberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2000.

Selevko G.K. Sovremennye obrazovatelnye texnologii. – Moskva: Narodnoe obrazovanie, 1998.

Polat E.S. Novye pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v sisteme obrazovaniya. – Moskva: Akademiya, 2002.

Клapin M.V. Innovatsionnye modeli obucheniya v zarubejnyx pedagogicheskix poiskax. – Moskva: Arena, 1994.

Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009.

Brookfield S.D. Becoming a Critically Reflective Teacher. – San Francisco: Jossey-Bass, 1995.

UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO, 2021.

https://lex.uz

https://uzedu.uz

https://www.unesco.org